

# SUV TOSHQINI!

## SUV TOSHQINI -

daryo, ko'l yoki dengiz suvi sathining  
ko'tarilishi natijasida quruqlikni suv  
bosishi.



Suv toshqini xavfi sezilganda korxonalar, maktab, bog'chalar ishi to'xtatilishi; o'quvchilar, mahalla axli xavfsiz hududga ko'chirilishi va uy hayvonlari balandliklarga haydab ketilishi lozim.

## SUV TOSHQINI XAVFI PAYDO BO'LGANDA QO'LLANILADIGAN HARAKATLAR:



Uydagi elektr energiyasi, suv, gaz tarmog'i, pechkadagi olovni o'chiring;



Oziq-ovqat, qimmatbaho buyumlarni, kiyim-kechaklarni yuqori qavatga yoki tomga, cherdakka olib chiqing;



O'zingizga suzish vositalari, qutqaruв halqasi, arqon, narvon, signal beruvchi vositalar (fonar, oyna) tayyorlab qo'ying.


## EVAKUATSIYA VAQTIDA:

Issiq kiyim-bosh va dori-darmonlar, birinchi yordam ko'rsatishda foydalaniladigan anjomlar solingen aptechkani tayyorlang



3 (uch) kunga yetarli oziq-ovqat zahirasini (to'yimli oziq-ovqatlardan shokolad, sut, konserva, qotirilgan non, ichimlik suvi va boshqalar) oling

Suvda harakatlanishga to'g'ri kelib qolsa, muhofaza vositalari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan taxta, avtomobil kameralari, eshiklar, yog'och to'siqlar, va qutqaruв halqasi kabi anjomlarni tayyorlang



Agar vaqtingiz bo'lsa deraza va eshiklarni mixlab qo'ying

Darvoza yoki eshik qarshisiga tuproq uyumlarini to'plab, xovliga yoki uyga suv kirishining oldini oling

